



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

№2

2026



# SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 -yil, 2-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008-yil 31-dekabrda  
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.  
O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e’tirof etilgan

## Tahririyat a’zolari:

### Mas’ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardayev

### Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov  
PhD, dotsent I.M.Pardayeva  
PhD, I.Sh.Ernazarova

### Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

### Korrektor:

PhD, dotsent v.b.  
T.I.Yahyoyev

### Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.  
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba  
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida  
tarqatiladi.**

### Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,  
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53  
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

## Tahrir hay’ati raisi:

**M.E.Po‘latov** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,  
i.f.d., professor

## Tahrir hay’ati raisi o‘rinbosari:

**O.M.Pardayev** – SamISI prorektori, iqtisod fanlari doktori,  
professor

## Tahrir hay’ati a’zolari:

**M.M.Muxammedov** – SamISI professori, iqtisod fanlari  
doktori

**D.R.Zaynalov** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**O.M.Murtazayev** – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,  
professor

**M.R.Boltabayev** – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

**R.X.Ergashev** – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

**B.K.G‘oibnazarov** – iqtisod fanlari doktori, professor

**I.S.To‘xliyev** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**K.B.Urazov** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**D.H.Aslanova** – iqtisod fanlari nomzodi, professor

**Q.J.Mirzayev** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**B.I.Isroilov** – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

**G.M.Shodiyeva** – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

**S.N.Toshnazarov** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**R.N.Normaxmatov** – SamISI professori, texnika fanlari doktori

**A.Bektemirov** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**M.T.Alimova** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**Z.Dj.Adilova** – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

**Sh.O.Quvondiqov** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**L.N.Xalikova** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**F.A.Safarov** – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

**A.M.Karimova** – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

**I.B.Mattiyev** – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

**B.F.Boronov** – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

**A.N.Xoliqulov** – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

**X.A.Raximov** – SamISI dotsenti, PhD

**S.A.Babanazarova** – SamISI dotsenti, PhD

**H.N.Ochilova** – SamISI dotsenti v.b., PhD

**I.R.Berdikulova** – SamISI dotsenti v.b., PhD

**A.Q.G‘apparov** – SamISI dotsenti v.b., PhD

|                                                                                                                                                                                      |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Sevinch Shomurot qizi Arziyeva</b><br>Gilam ishlab chiqarish korxonalarida iste'molchilar xulq-atvorini o'rganish va marketing qarorlarida qo'llash                               | 147 |
| <b>Xilola Nematovna Ochilova, Mirzohid Azamat o'g'li Iskandarov</b><br>Boshqaruvda menejment tamoyillarining o'rni, ahamiyati va zaruriyati                                          | 151 |
| <b>Nigina Marupovna Usmanova</b><br>Xizmat ko'rsatish sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o'rni hamda holat tahlili                                               | 155 |
| <b>INNOVATSIYA VA RAQAMLI IQTISODIYOT</b>                                                                                                                                            |     |
| <b>Xayrulla Qilichovich Qarshiboyev</b><br>Iqtisodiy jarayonlarni modellash tirishda chiziqli regressiya modelidan foydalanish                                                       | 162 |
| <b>Malika Axmad qizi Qurbonova</b><br>Hududiy boshqaruvda raqamli iqtisodiyot samaradorligini ekonometrik baholash                                                                   | 166 |
| <b>Nargiz Toxirovna Sattarova</b><br>Mintaqaviy tadbirkorlik subyektlarini raqamli ekotizimga integratsiyalash orqali hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlash                         | 169 |
| <b>Gullola Mirkamolovna Toxirova</b><br>Savdo korxonalarida innovatsion rivojlanish va barqaror iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik                                              | 172 |
| <b>Sanjar Safarovich Bazarov</b><br>Iqlimga moslashuvchan asalarichilikni rivojlantirishda raqamli monitoring tizimlarini baholash                                                   | 175 |
| <b>MOLIYA, PUL MUOMALASI VA KREDIT</b>                                                                                                                                               |     |
| <b>Shavkat Sobirovich Oltayev</b><br>Milliy iqtisodiyot taraqqiyotida eksport faoliyatining ahamiyati                                                                                | 180 |
| <b>Nargiza Muzafarovna Babaeva</b><br>Mikromoliyaviy tashkilotlarning kichik biznesni qo'llab-quvvatlashdagi roli                                                                    | 183 |
| <b>BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT</b>                                                                                                                                 |     |
| <b>Тўлқин Исматулла ўғли Яхёев</b><br>Қурилиш хизматлари кўрсатувчи корхоналарда 5-сон МХХС стандарти асосида активлар ҳисобини юритиш                                               | 191 |
| <b>Jahongir Bakhodirovich Ergashev</b><br>Savdo korxonalari iqtisodiy samaradorligini moliyaviy ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish                                                 | 194 |
| <b>Давлат Комилов Уразов</b><br>Актуальные вопросы трактовки, классификации и оценки качества аудиторских услуг                                                                      | 198 |
| <b>Asror Maxmanazar o'g'li Yusupov</b><br>Qo'shma korxonalarda aktivlarni xalqaro standartlar asosida tashkil etishning o'ziga xos jihatlari                                         | 205 |
| <b>Alisher Bobaqulovich Ravshanov</b><br>Chorvachilik xo'jaliklarida qoramollarni hisobga olish muammolari                                                                           | 210 |
| <b>Nilufar Abdaxatovna Abdukadirova</b><br>Umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyati samaradorligini kompleks iqtisodiy tahlil qilish va baholashning zamonaviy yondashuvlari         | 215 |
| <b>TA'LIM, KADRLAR TAYYORLASH VA PEDAGOGIKA</b>                                                                                                                                      |     |
| <b>Farrux Shadiyorovich Shanazarov</b><br>Ta'lim va ijtimoiy xizmatlarning inson kapitalini shakllantirishdagi o'rni                                                                 | 218 |
| <b>Зулфия Самиевна Ганиева, Лазиз Абдирашидович Наврузов</b><br>Социально-когнитивные механизмы формирования математических компетенций: синтез идей Л.С. Выготского и принципов RIE | 223 |
| <b>E'TIBORGA MOLIK MASALALAR</b>                                                                                                                                                     |     |
| <b>Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев</b><br>Жамоада яхши етакчининг борлиги – жамоанинг бахти                                                                                             | 227 |

12. Yudina T.N. Tsifrovaya ekonomika skvoz prizmu filosofii i politicheskoy ekonomii. // *Filosofiya xozyaystva*, 2018, №1. – S. 137-143.
13. Castells M. The Rise of the Network Society. The Information Age: Economy, Society, and Culture. Vol. 1. Oxford: Blackwell Publishers, 2010.
14. Smith J., & Brown A. Regional disparities in digital infrastructure adoption among SMEs. *Journal of Regional Economics*, 45(2), 2020. – pp. 234-251.
15. OECD (2021). "SME Digitalisation to Build Back Better", OECD Policy Responses to Coronavirus (COVID-19), OECD Publishing, Paris.

| <p style="text-align: center;"><b>Н.Саттарова</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Обеспечение региональной конкурентоспособности путем интеграции региональных субъектов предпринимательства в цифровую экосистему</b></p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | <p style="text-align: center;"><b>N.Sattarova</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Ensuring regional competitiveness through the integration of regional business entities into the digital ecosystem</b></p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p><b>Аннотация.</b> В данной статье проведен эконометрический анализ уровня интеграции субъектов малого и среднего бизнеса (МСБ) в цифровую экосистему в условиях развития региональной экономики. На основе данных 450 субъектов предпринимательства Самаркандской области оценена цифровая асимметрия между регионами и ее влияние на рентабельность предприятий. Результаты исследования показали наличие сильной корреляционной связи между «цифровой зрелостью» и снижением операционных расходов. В разделе обсуждения проведен сравнительный анализ с международным опытом и предложены комплексные механизмы стимулирования региональной электронной коммерции.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> цифровая экосистема, региональная экономика, территориальная конкурентоспособность, корреляционный анализ, цифровая асимметрия, электронная коммерция, B2B интеграция.</p> | <p><b>Abstract.</b> This article conducts an econometric analysis of the level of integration of small and medium-sized enterprise (SME) subjects into the digital ecosystem in the context of regional economic development. Based on data from 450 business entities in the Samarkand region, the digital asymmetry between regions and its impact on enterprise profitability is evaluated. The research results revealed a strong correlation between "digital maturity" and the reduction of operating costs. In the discussion section, a comparative analysis with international experience is conducted, and comprehensive mechanisms for stimulating regional e-commerce are proposed.</p> <p><b>Keywords:</b> digital ecosystem, regional economy, territorial competitiveness, correlation analysis, digital asymmetry, e-commerce, B2B integration.</p> |

**Gullola Mirkamolovna Toxirova** – SamISI Menejment kafedrasi assistenti

### SAVDO KORXONALARIDA INNOVATSION RIVOJLANISH VA BARQAROR IQTISODIY O‘SISH O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p><b>Annotatsiya.</b> Mazkur maqolada zamonaviy iqtisodiy sharoitda savdo korxonalarining barqaror o‘shini ta’minlashda innovatsion rivojlanishning tutgan o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida savdo sohasidagi texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarning korxona moliyaviy barqarorligiga ta’siri o‘rganilib, innovatsion faollik va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik asoslab berilgan. Shuningdek, O‘zbekiston riteyl bozoridagi mavjud tendensiyalar tahlili asosida savdo korxonalarini innovatsion transformatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.</p> <p><b>Kalit so‘zlar:</b> savdo korxonalari, innovatsion rivojlanish, barqaror iqtisodiy o‘shish, raqamli transformatsiya, riteyl sektori, omnichannel model, marketing innovatsiyalari, iqtisodiy samaradorlik, raqobatbardoshlik, innovatsion mexanizmlar.</p> |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

**Kirish.** Bugungi kunda global iqtisodiyotda kuzatilayotgan shiddatli transformatsiya jarayonlari savdo korxonalari faoliyatini tubdan yangilashni talab etmoqda. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, iste’molchilar xulq-atvorining o‘zgarishi va bozor konyunkturasini o‘rtasidagi raqobatning kuchayishi savdo subyektlari uchun innovatsion rivojlanishni shunchaki tanlov emas, balki strategik zaruriyatga aylantirdi. O‘zbekiston iqtisodiyotida ham xizmat ko‘rsatish va savdo sohasi yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibida salmoqli o‘ringa ega bo‘lib, ushbu tarmoqda barqaror iqtisodiy o‘shishga erishish bevosita innovatsiyalarning joriy etilish darajasiga bog‘liqdir.

Savdo korxonalarida barqaror iqtisodiy o'sish – bu faqatgina joriy foydaning oshishi emas, balki korxonaning tashqi muhit o'zgarishlariga moslashuvchanligi, resurslardan oqilona foydalanishi va uzoq muddatli raqobatbardoshligini saqlab qolishidir. Innovatsiyalar, xususan, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt asosidagi marketing vositalari va logistik optimallashtirish tizimlari korxonalarga xarajatlarni kamaytirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va yangi bozor segmentlarini egallash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-6079-sonli Farmonida belgilangan vazifalar, jumladan, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini, shu jumladan savdo sohasini ham raqamli transformatsiya qilish, sohada innovatsion ekotizimlarni yaratishni ko'zda tutadi. Shu nuqtai nazardan, savdo korxonalarida innovatsion faoliyatni rag'batlantirish hamda uning barqaror iqtisodiy o'sish bilan bog'liqlik mexanizmlarini tadqiq etish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi savdo korxonalarida innovatsiyalarning turlari, ularning iqtisodiy natijalarga ta'sir qilish yo'nalishlari va barqaror o'sishni ta'minlovchi innovatsion modellarni ishlab chiqishdan iboratdir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Savdo korxonalarida innovatsiyalar va iqtisodiy barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, Yozef Shumpeter o'zining innovatsion rivojlanish nazariyasida "ijodiy vayronkorlik" tushunchasini kiritib, yangi texnologiyalar eski bozor modellarini siqib chiqarish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashini asoslagan.

Zamonaviy riteyl (retail) sohasida innovatsiyalarni tadqiq etgan P. Kotler va K. Kler kabi olimlar mijozlar bilan muloqotning raqamli kanallari (Omnichannel) savdo hajmini barqaror oshirishning asosiy omili ekanligini ta'kidlashadi. O'zbekistonlik olimlardan M.Q. Pardayev va Q.J. Mirzayevlar xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun resurs tejankor texnologiyalarni joriy etish va boshqaruv usullarini innovatsiyalash zarurligini o'z asarlarida ko'rsatib o'tishgan [4]. Shuningdek, so'nggi yillarda mahalliy tadqiqotchilar tomonidan savdo subyektlarida raqamli ekotizimlarni (masalan, Uzum, Korzinka ilovalari) yaratishning institutsional asoslari keng o'rganilmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolani tayyorlashda savdo korxonalarining innovatsion faoliyati va iqtisodiy ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni aniqlash maqsadida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi:

**Tizimli tahlil:** Savdo korxonasi bir butun ekotizim sifatida ko'rib, uning har bir bo'g'inidagi (logistika, sotuv, marketing) innovatsiyalar tahlil qilindi.

**Qiyosiy tahlil:** An'anaviy savdo modellari va raqamlashtirilgan (e-commerce) savdo modellarining iqtisodiy samaradorligi o'zaro solishtirildi.

**Mantiqiy umumlashtirish:** Innovatsiyalarning barqaror o'sishga ta'sir etish mexanizmlari bo'yicha nazariy xulosalar shakllantirildi.

**Statistik ma'lumotlar tahlili:** O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi ko'rsatkichlari asos qilib olindi.

**Tahlil va natijalar.** Savdo korxonalarida innovatsion faollikni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalar va barqaror iqtisodiy o'sish o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri korrelyatsiya mavjud. Tadqiqotlarimiz natijasiga ko'ra, raqamli innovatsiyalarni (E-commerce, CRM tizimlari, kontaktsiz to'lovlar) joriy etgan savdo korxonalarida aylanma mablag'larning tezligi an'anaviy korxonalarga nisbatan 1,4-1,8 barobarga yuqori ekanligi aniqlandi. Quyidagi jadval shaklida namoyish etish mumkin (1-jadval).

1-jadval

Savdo korxonalarida innovatsiyalarning iqtisodiy natijalarga ta'siri


| Innovatsiya turi                   | Iqtisodiy samarasi              | Barqarorlikka ta'siri           |
|------------------------------------|---------------------------------|---------------------------------|
| <b>Texnologik</b> (CRM, ERP)       | Xarajatlar 15-20% ga kamayadi   | Boshqaruv shaffoflashadi        |
| <b>Marketing</b> (Sodiqlik tizimi) | Takroriy xaridlar 30% ga oshadi | Mijozlar bazasi barqarorlashadi |
| <b>Logistik</b> (Aqlli ombor)      | Yetkazib berish vaqti qisqaradi | Resurslar tejaladi              |

Samarqand viloyati misolida chakana savdo sohasidagi o'zgarishlarni tahlil qilganimizda, innovatsion yondashuvlarning quyidagi afzalliklari ko'zga tashlanadi:

1. **Operatsion xarajatlarning kamayishi:** "Aqlli ombor" (Smart Warehouse) va avtomatlashtirilgan inventarizatsiya tizimlari orqali tovar yo'qotishlari va saqlash xarajatlari o'rtacha 12-15% ga qisqargan.

2. **Mijozlar sadoqati va barqaror daromad:** Shaxsiy takliflar (Personalized offers) va mobil ilovalar orqali amalga oshiriladigan sodiqlik dasturlari mijozlarning qayta xarid qilish koeffitsientini 25% ga oshirgan. Bu esa bozor kon'yunkturasi o'zgargan sharoitda ham korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi.

Quyidagi 1-rasmda savdo korxonalarida innovatsion rivojlanishning barqaror iqtisodiy o'sishga ta'sir qilish mexanizmi keltirilgan:



### 1-rasm. Savdo korxonalarida innovatsion-iqtisodiy o'sish mexanizmi.

Shuningdek, tahlillar shuni ko'rsatdiki, innovatsiyalarni joriy etishda korxonalar ma'lum to'siqlarga duch kelmoqda. Bularga yuqori darajadagi boshlang'ich investitsiya xarajatlari va malakali IT-mutaxassislarning yetishmasligi kiradi. Biroq, uzoq muddatli istiqbolda innovatsiyalar nafaqat xarajatlarni qoplaydi, balki korxonaning barqaror iqtisodiy o'sish trayektoriyasiga chiqishini kafolatlaydi.

**Xulosa va takliflar.** Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, savdo korxonalarida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun quyidagilar taklif etiladi:

Birinchidan, omnichannel modeliga o'tish innovatsion rivojlanishning savdo korxonasining imkoniyatlarini ancha oshiradi. Oflayn va onlayn savdo kanallarini integratsiya qilish orqali bozor qamrovini kengaytirish.

Ikkinchidan esa, katta ma'lumotlar (Big Data) tahlili natijasida savdo aylanmasini aniqlash hamda savdo xizmatlarini takomillashtirish imkoniyati yanada ortadi. Iste'molchilar xulq-atvorini prognozlash orqali tovar zaxiralarini aniq rejalashtirish natijasida resurslarning samarali ishlashini, bekor turib qolmasligini ta'minlash mumkin.

Uchinchidan, zamonaviy savdo servisini yaxshilash uchun raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish maqsadida xodimlarni qayta tayyorlash samarali natija ko'rsatadi. Innovatsion texnologiyalar bilan ishlash bo'yicha xodimlarning raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish mijozlar roziligi va sodiqligini oshiradi hamda savdo korxonalarining daromadlilikini ta'minlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni. // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
- [2]. Shumpeter Y. Nazariya ekonomicheskogo razvitiya. – M.: Progress, 1982. – 455 s.
- [3]. Kotler P., Keller K.L. Marketing Management. 15th Edition. – Pearson Education, 2016. – 712 p.
- [4]. Pardaev M.Q., Mirzaev Q.J., Pardaev O.M. Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2014. – 384 b.

- [5]. Gulyamov S.S. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. – T.: TMI, 2019. – 396 b.
- [6]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-60-son Farmoni. // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
- [7]. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. – W. W. Norton & Company, 2014. – 306 p.
- [8]. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlari. [Elektron resurs]. URL: <https://stat.uz> (Murojaat sanasi: 2026-yil aprel).
- [9]. Innovatsion rivojlanish mexanizmlarini shakllantirishning konseptual modeli: Savdo korxonalari misolida. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Samarqand, 2026.
- [10]. Muallif tadqiqotlari va hisob-kitoblari asosida tayyorlandi.

| <p style="text-align: center;"><b>Г.Тохинова</b><br/> <b>Взаимосвязь между инновационным развитием и устойчивым экономическим ростом на предприятиях торговли</b></p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | <p style="text-align: center;"><b>G.Tokhirova</b><br/> <b>The relationship between innovative development and sustainable economic growth in trade enterprises</b></p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p><b>Аннотация.</b> В данной статье анализируется влияние внедрения инноваций на торговых предприятиях на их устойчивый экономический рост. В ходе исследования была изучена зависимость между цифровыми технологиями, маркетинговыми инновациями и уровнем прибыльности. В завершение статьи представлены предложения по инновационной трансформации торгового сектора.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> торговые предприятия, инновационное развитие, устойчивый рост, цифровая трансформация, omnichannel, рынок ритейла, экономическая эффективность, технологические инновации.</p> | <p><b>Abstract.</b> This article analyzes the impact of introducing innovations in trade enterprises on their sustainable economic growth. During the research, the relationship between digital technologies, marketing innovations, and profitability levels was studied. The article concludes with proposals for the innovative transformation of the trade sector.</p> <p><b>Keywords:</b> trade enterprises, innovative development, sustainable growth, digital transformation, omnichannel, retail market, economic efficiency, technological innovations.</p> |

**Sanjar Safarovich Bazarov** – Qoraqalpog‘ davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

## IQLIMGA MOSLASHUVCHAN ASALARICHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MONITORING TIZIMLARINI BAHOLASH

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada iqlim o‘zgarishlari sharoitida asalarichilik tarmog‘ining barqarorligini ta’minlashda raqamli monitoring tizimlarining ahamiyati va samaradorligi baholangan. Tadqiqotda harorat o‘zgarishi, qurg‘oqchilik va vegetatsiya davrining siljishi kabi iqlim omillarining asalari oilalariga ta’siri tahlil qilinib, ularni boshqarishda zamonaviy raqamli texnologiyalarning roli yoritilgan. Xususan, asalari uyalarida mikroiklim ko‘rsatkichlarini real vaqt rejimida kuzatish, muammolarni erta aniqlash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlari ilmiy asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** asalarichilik, iqlim o‘zgarishi, raqamli monitoring, iqlimga moslashuvchanlik, agrotexnologiyalar, asalari oilasi, mikroiklim nazorati, qishloq xo‘jaligi innovatsiyalari, samaradorlik, raqamli boshqaruv

**Kirish.** So‘nggi yillarda global va hududiy iqlim o‘zgarishlari qishloq xo‘jaligi tarmoqlariga, xususan, asalarichilik faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Harorat amplitudasining ortishi, qurg‘oqchilikning kuchayishi hamda vegetatsiya davrining siljishi asalari oilalarining biologik barqarorligiga salbiy ta’sir etib, asal ishlab chiqarish hajmi va sifat ko‘rsatkichlarining pasayishiga olib kelmoqda. Asalarilar tashqi muhit omillariga yuqori darajada sezgir bo‘lganligi sababli hatto kichik iqlim o‘zgarishlari ham ularning rivojlanishi, oziqlanish bazasi va populyatsiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois iqlim omillarini faqat ekologik jihatdan emas, balki ishlab chiqarish samaradorligini belgilovchi muhim iqtisodiy omil sifatida baholash zarurati ortib bormoqda.

Mazkur sharoitda asalarichilikni iqlimga moslashtirish, risklarni kamaytirish va ishlab chiqarish barqarorligini ta’minlashda raqamli texnologiyalarning o‘rni tobora ortib bormoqda.

ISSN 2091-5187

❧ “SERVIS” ❧

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat  
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

15.05.2026-yilda terishga berildi. 26.05.2026-yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset  
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” garniturası. Ofset bosma usuli.  
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot  
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0105A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining  
matbaa bo‘limida chop etildi.  
Litsenziya № 025316.  
Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.